

PARODONT KASALLIKLARINING KELIB CHIQISHI SABABLARI VA ULARNING DAVOLLASH YO'LLARI

Sobirov Ahmad Jumaqulovich,

Rahbar Ilyosova Munira

Ilhomovna, talabasi

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

munirailyosova5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada parodont to'qimalarining yallig'lanish kasalliklari-gingivit va parodontitning etiologiyasi, klinik belgilari, diagnostikasi hamda zamonaviy davolash usullari yoritilgan. Parodont kasalliklarining rivojlanishida og'iz gigiyenasining yetarli emasligi, mikrobiologik omillar, umumiy somatik kasalliklar va irsiy moyillikning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, kasallikning erta aniqlanishi va profilaktikasining ahamiyati ta'kidlanadi. Maqola parodont kasalliklarini davolash va oldini olishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Gingivit, parodont, ftor, Ca, vitamin, parodontoz, parodontoma, gipertenziya, ponasimonnuqson,atrofik gingivit.

Parodont — anatomik tuzilma bo'lib, milk, aliveola suyagi, suyak pardasi, periodont, tish to'qimalaridan tashkil topgan.

Parodontozning kechishiga ko'ra **Yengil parodontoz**-bemorlar shikoyat qilmaydilar, mayda-chuyda o'zgarishlarga (qichish, achish kabilar) ga axamiyat bermasdan vrachga murojaat etmaydilar. *Ob'ektiv* kuruvda milk tishga yopishib turishi, oqishrok, rangdaligi, tish toshlari deyarli yuqligi, mikrobli karashlar yopishgan (agar bemor muntazam tishlarini tozalab tursa), oldingi tishlardagi milk salgina o'tirib qolganligi, rentgenogrammada tish-lararo tusiqchalar balandligini pasayganligi qayd etiladi. **O'rta parodontoz**-estetik kemptik (tish ildizlarining ochilib qolishi xusnni buzadi), tishlar sarg'ayishi, bo'yin qismlarining, sovuq-, nordon kabi ta'sirotlardan og'rishi kabi bemor shikoyatlari paydo bo'ladi. O'rta parodontoz uchun tish ildizlarining 1/2 gacha ochilib kolishi xarakterlidir. **Og'ir kechadigan parodontoz**-ildiz ochilib, tishlararo bo'shliklar paydo bo'ladi va

ildizning 1/2 dan ko'prog'i ochilib qoladi. Milklerde og'riqlar, xarorat, kimyoviy ta'sirlardan esa *og'riq* kuchayishi, paresteziya (tishlar qamashib qolishi, qichish, achishish, og'ri!q) bemorlarni vrachga murojaat etishga majbur qiladi.

Parodontoz ANAMNEZI

Kasallik bemorni aytarlik darajada bezovta qilmaydi. Shuning uchun bemorlar stomatologga kamdan-kam murojaat qiladilar. Ularning shikoyati quydagicha:

1. Tish ildizlari alveola o'sig'inish so'rilishi natijasida ochilib qolganligi tufayli tish to'qimasining issiq-sovuq, shirinliklar ta'sirida sezuvchanligi oshishi mumkin.

2. Estetik buzilgandan ham shikoyat qilishlari mumkin.

Bemorning og'iz bo'shlig'ida parodont to'qimasi ko'zdan kechirilganda quyidagi belgilar kuzatiladi:

- milk oqish rangda, qonsiz bo'ladi,atrofik gingivit,yallig'lanish yo'q;
- milk qochishi, o'tirishi va tish bo'yin qismining ochilib qolishi;
- parodontal cho'ntaklari bo'lmasligi;
- tishlar qimirlamasdan, alveola katakchalarida mustahkamligi;
- rentgen tasvirida osteoporoz bo'lmaydi, suyakda yallig'lanish kuzatilmaydi, aksincha, osteoskleroz va alveola o'sig'ining tekis pasayishiro'y beradi

Parodontozning profilaktik choralari:

1. Tishlarni muntazam tozalash
2. Tish ipidan foydalanish
3. Yaxshi oziqlanish
4. Tish shifokoriga murojaat qilish

Parodontozni davolash. Parodont kasalligining bu turini asosan uning kechishiga qarab davlanadi. Atrofiya kuchayib, tish-bo'yin qismining sezuvchanligi oshganda remteraggiya, ya'ni tish qattiq to'qimasining minerallanish darajasi oshirishga qaratiladi. 1-2%li nagriy *ftor*, kalsiy xlor/vitamin , elektroforez yordamida to'qimaga yuboriladi. Shu maqsadda ftor lakini tishga surkash ham mumkin.

Kasallikni davolashdagi so'nggi maqsad parodont to'qimasini to'la fiziologik holatga yakshlashtirish, qon tomirlar faoliyatini oshirish, suyak tarkibidagi mineral tuzlar, mikroelementlarni ko'paytirish va metabolik jarayonlarni me'yorlashtirish. Bunga asosan fizikaviy usullarni qo'llab erishiladi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Jo'rayev A., Rahimov N. – "Stomatologiya" Parodontoz haqida "Tafakkur-Bo'stoni" 2010-yil 170–190-betlar oralig'ida
2. Sattorov S., Sattorova B. – "Terapevtik stomatologiya" .“Ilm Ziyo” nashriyoti. 2015-yil, 130–160-betlar oralig'ida
3. Qodirov N., Yusupova Z. – "Bolalar stomatologiyasi" , “O'zbekiston” nashriyoti , 2011-yil, 100–110-betlar oralig'ida
4. Nazarov Sh. – "Og'iz bo'shlig'i kasalliklari", “Tibbiyot”, 2012-yil, 150–180-betlar